

NEMIS VA INGLIZ TILLARIDAGI GRAMMATIK VA LEKSIK O'XSHASHLIKLARNING HAMDA TAFOVUTLARNING TIL O'RGANISH JARAYONIGA TA'SIRI

Xolmatova Muslimaxon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20227798>

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis va ingliz tillari o'rtasidagi grammatik hamda leksik o'xshashliklarning chet tilini o'rganish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida artikl tizimi, zamon kategoriyasi, yordamchi fe'llar hamda lug'at boyligidagi umumiyliklar qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, qarindosh tillar o'rtasidagi genetik yaqinlik til o'rganishning boshlang'ich bosqichini yengillashtirishi va grammatik strukturalarni tezroq o'zlashtirishga yordam berishi yoritilgan. Maqolada nemis va ingliz tillaridagi o'xshashliklarning til o'rganuvchilar uchun amaliy ahamiyati misollar orqali asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nemis tili, ingliz tili, qarindosh tillar, grammatika, artikl tizimi, lug'at boyligi, qiyosiy tilshunoslik, til o'rganish jarayoni, zamon kategoriyasi, rod kategoriyasi, tematik so'zlar guruhi, til oilasi

Kirish. Barchamizga ma'lumki, turli til oilalariga mansub bo'lgan, lingvistik jihatdan turlicha xarakter-

xususiyatga ega bo'lgan tillarni o'rganish jarayoniga ta'siri katta. Shuni ham ta'kidlash joizki, ona tili va o'rganish maqsad qilingan tilning grammatik strukturasi o'xshashmi yoki mutlaqo farq qiladimi, bu tilga oid orfografik, grammatik, so'z boyligi va talaffuzga oid bazaviy bilimlarga egalik yoki ega emaslik ham nafaqat til o'rganishdagi muvaffaqiyatga, balki o'rganish tezligiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, bir til oilasiga mansub, qarindosh bo'lgan tillardagi ko'plab parallelliklar ham jarayonda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayrim hollarda kundalik muloqot jarayonida kuzatiladiki, boshqa o'zlashtirmagan, birinchi marta eshitib turgan tilimizdagi ba'zi so'zlar va gaplarni tushunishimiz mumkin. Ba'zida bu holat insonlar tomonidan shunday izohlanadi: “Aslida menga bu tilni tushunishga nima sabab bo'lganini mutlaqo bilmayman” yoki “Men o'zim taxmin qilgandan ko'ra ko'proq tilni tushunarkanman”, “Men bu tilni o'ylaganimdan ko'ra ko'proq tushundim” kabi.

Shunga qaramasdan eslatib o'tish joizki, bir til oilasiga mansub bo'lgan tillar o'rtasida ham lug'at boyligi va grammatik strukturaga oid tafovutlar mavjud (tamoman boshqa harflar, boshqa alifbo kabi). Lekin, qarama-qarshi ravishda qarindosh bo'lgan tillardagi parallelliklar chet tilidagi so'zlar va matnlarni tushunishga yordam beradi.

Tilshunos olim James ta'kidlaganidek, “Qiyosiy til tahlili grammatik strukturalarni chuqurroq anglash imkonini beradi”¹. Yana bir muhim jihat shundaki, bu singari genetik o'xshashliklar yangi til o'rganishni boshlang'ich bosqichini osonlashtiradi va strukturalarning o'zaro tahlil va chog'ishtiruvini keyingi jarayonlarda muhim strategiya bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Agarda til o'rganuvchi tomonidan tillar grammatikasidagi yoxud so'z boyligidagi o'xshash taraflar aniqlansa va tahlil qilinsa, bu tahlillar bazasi orqali boshqa turli qiyin grammatik qoidalarni ham oson tushunish mumkin. Bundan tashqari, til o'rganishda avvalgi til tajribasi yangi tilni o'zlashtirishga bevosita ta'sir qiladi.² Quyida ingliz va nemis tillaridagi ayrim mavzularni qisqa tahlil qilish misolida batafsilroq tushunish mumkin. Bosniyalik nemis tillari o'rtasidagi tarixiy yaqinlik nemis va ingliz tillaridagi ko'plab umumiylikning asosini tashkil qiladi.³

Nafaqat ingliz tilida, balki nemis tilida ham otlardagi aniq va noaniq artikllar farqlanadi. Bu mavzu artikl tizimi mavjud bo'lmagan tilda so'zlashuvchilar uchun nemis yoki ingliz kabi tillar artikllar sistemasini tushunib o'rganish uchun baza sifatida yordam beradi.

Nemis tilidagi 3 artikl hanuzgacha

to'laonli yoritilmagan bo'lsa-da, nemis va ingliz tillari o'rtasidagi "Artiklning qo'llanilishi" mavzusi nemis tilidagi artikllarni tushunishni osonlashtiradi

Feminina Maskulina Neutra. Plural

Deutsch Die Der Das Die

Englisch The The The The

Eine Ein Ein -

a(an) a(an) a(an) -

Jadvaldan ko'rinib turganidek, har ikkala tilda ham artikl tizimi borligi ularning o'xshash tarafi, lekin istisno tarzida ta'kidlash joizki, nemis tilida har bir rod uchun maxsus artikl bor, ingliz tilida esa aniq artikl sifatida faqat "the", noaniq artikl sifatida faqat "a/an" qo'llaniladi.

Nemis va ingliz tillaridagi zamonlar mavzusiga oid fe'learning yordamchilar bilan ("haben", "sein") yasaladigan Shakti ham paralelliklarni yuzaga keltiradi. Agarda bu ikki til o'rganuvchilar tomonidan mutlaqo boshqa til oilasiga mansub bo'lgan, yordamchi fe'llar orqali yasaladigan shakllari mavjud bo'lmagan til bilan grammatik jihatdan chog'ishitirilganda, o'xshashliklar yanada aniqroq seziladi. Masalan:

Deutsch geht ging ist gegangen wird gehen

Englisch Go went has gone will go

Va aynan ingliz tilida ham nemis tilidagi kabi zamon kategoriyasida fe'llar guruhga ajraladi. Ular nemis tilida "regelmäßige und unregelmäßige Verben" (ya'ni qoidaga bo'ysunuvchi va bo'ysunmas fe'llar), ingliz tilida esa "regular and irregular verbs" (ya'ni to'g'ri va noto'g'ri fe'llar) deb nomlanadi.

Ähnlichkeiten im Wortschatz

Ayniqsa asosiy lug'aviy so'z boyligi bo'yicha qiyosiy tahlillar jarayonida har ikki tilda ham ko'plab tematik so'zlar guruhlari mavjud. Masalan, "Bo'sh vaqt, oylar, raqamlar, hobbilar, kiyim-kechaklar va boshqa mavzularda o'xshashliklar uchraydi va bu jarayon til

o'rganish jarayonini nisbatan osonlashtiradi.

Bundan tashqari, ba'zi birikmalarning tuzilishida ham strukturaviy o'xshashlik bor. Masalan:

Es ist kalt (nemis tilida : havo sovuq)

It is cold (ingliz tilida : havo sovuq)

Ko'rinib turibdiki, ikkala tilda ham gapning qurilishi o'xshash tartibda shakllangan. Bu esa sintaktik strukturalarni o'zlashtirishda qulaylik yaratadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, nemis va ingliz tillari o'rtasidagi grammatik hamda leksik o'xshashliklar chet tilini o'rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ayniqsa artikl tizimi, zamon kategoriyasi, yordamchi fe'llar va lug'at boyligidagi umumiyliklar o'quvchilarga yangi tilni tezroq tushunish va o'zlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, tillarni qiyosiy tahlil qilish usuli grammatik qoidalarni chuqurroq anglashga yordam beradi va o'rganish jarayonida samarali strategiya sifatida xizmat qiladi. Shu sababli nemis va ingliz tillarini parallel ravishda o'rganish til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari va isboti sifatida Cenozning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Qarindosh tillarni parallel o’rganish til tizimlarini qiyoslash orqali samaraliroq natija beradi”.⁴

References:

1. James, C. (1980). *Contrastive Analysis*. Longman.
2. Ellis, R. (1994). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
4. Cenoz, J. (2001). *The Effect of Linguistic Distance, L2 Status and Age on Cross-linguistic Influence in Third Language Acquisition*.